



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



**ANDIJON VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI
ASOSIY KO'RSATKICHLARI
2024- YIL YANVAR-AVGUST**

2024- yil 1-sentabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Andijon sh.	612
Xonobod sh.	31
Oltinko'l t.	76
Andijon t.	101
Baliqchi t.	51
Bo'ston t.	36
Buloqboshi t.	80
Jalaquduq t.	49
Izboskan t.	57
Ulug'nor t.	186
Qo'rg'ontepa t.	74
Asaka t.	99
Marhamat t.	74
Shahrixon t.	135
Paxtaobod t.	61
Xo'jaobod t.	62

2024- yilning 1-sentabr holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 854 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 612 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 33,0 % Andijon shahrida joylashgan.

Qurilish korxonalari soni, birlikda


2990
3362
3326
2092
1854

2020
2021
2022
2023
2024



Shuningdek, Andijon shahrida 612 ta (Andijon viloyati bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 33,0 %), Shahrixon tumanida – 135 ta (7,3 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga


2024- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʼati



2024-yilning yanvar-avgust oylarida, Andijon viloyatida jami 5 269,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

oʻsish surʼati oʻtgan yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2024-yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 62,5 % yoki 3 292,6 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



2024- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. so'mda

	2023-yil	2024-yil	Ulushi, % da
Viloyat bo'yicha jami	3244,2	3292,6	100,0
Andijon sh.	1078,9	1278,1	38,8
Xonobod sh.	112,4	60,1	1,8
Oltinko'l t.	200,6	177,0	5,4
Andijon t.	316,7	236,2	7,2
Baliqchi t.	82,5	128,0	3,9
Bo'ston t.	154,6	152,3	4,6
Buloqboshi t.	53,8	101,2	3,1
Jalaquduq t.	87,5	89,2	2,7
Izboskan t.	95,0	157,4	4,8
Ulug'nor t.	65,3	31,6	1,0
Qo'rg'ontepa t.	168,5	111,9	3,4
Asaka t.	122,9	145,6	4,4
Marhamat t.	135,7	88,8	2,7
Shahrixon t.	250,5	255,4	7,8
Paxtaobod t.	169,3	150,1	4,6
Xo'jaobod t.	150,1	129,7	3,9

2024-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (1278,1 mlrd. so'm), Andijon tumani (236,2 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (255,4 mlrd. so'm) va Marhamat tumani (88,8 mlrd. so'm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

O'sish sur'ati



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



3552,5

mlrd. so'm

Bino va inshootlar qurish



1140,5

mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish



576,6


mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,4 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 91,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,6 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 66,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,9 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 70,3 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*




Jami bino va inshootlarni qurish - 3002,7 mlrd. so'm

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,5 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,7 % punktga ko'payib 75,0 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga kamayib, 24,5 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi mld. soʻmda



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 77,0 %), Marhamat tumani (75,0 %)da kuzatildi Paxtaobod tumani (75,3 %).



Paxtaobod tumani




Shahrixon tumani





Marhamat tumani



2024- yilning-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*




**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxona
va mikrofirmalar**



Norasmiy sektor




Jami fuqarolik obyektlarini qurish - 923,3 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,8 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,8 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 83,4 % ni tashkil etib 11,8 % punktga kamaydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish mld. so'mda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xonobod shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 33,4 % i), Oltinko'l tumani (33,1 %) va Andijon tumani (26,8 %)da kuzatildi.



Xonobod shahri




Oltinko'l tumani



Andijon tumani

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*




Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 503,3 mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,2 % punktga ko'paydi va 5,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 94,7 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari mld. so'mda



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xonobod shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 16,4 % i), Oltinko'l tumani (17,2 %) Bo'ston tumanida (13,6 %) va kuzatildi.



Xonobod shahri




Oltinko'l tumani




Paxtaobod tumani

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
137,5 %


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
110,5 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
71,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 287,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,1 m ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,4 % ga ko'payib, 5,5 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

*Jami yirik qurilish
tashkilotlari tomonidan bajarilgan* **- 287,7** *mlrd. so'm*
qurilish ishlari hajmi


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi *oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm*



2024-yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Hududlarning kesimida



Ma'lumot uchun:
yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jalaquduq tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 9,4 %i), Andijon shahar (48,7 %) va Andijon tumanida (15,8 %) qayd etildi.



Ulug'nor tumani




Oltinko'l tumani




Jalaquduq tumani

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.



2024- y.

2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,4 % to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etgan holda 4 081,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Jami kichik korxona va mikrofirmalar


tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi – 4 081,6 mlrd. so'm

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi


oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm



2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahriga (2014,9 mlrd. so'm), Shahrixon tumaniga (301,5) Andijon tumani (252,3 mlrd. so'm), to'g'ri keldi.



Andijon shahar




Andijon tumani




Shahrixon tumani

2024- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor *Jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,6 % ni yoki 900,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 71,6 % ga yetdi.

Shundan 684,9 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 66,0 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 40,0 mlrd. so'mni va 68,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 175,4 mlrd. so'mni va 109,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm




2024- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahriga (85,3 mlrd. so'm), Asaka tumanida (124,9 mlrd. so'm) va Jalaquduq tumanida (88,9 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



Andijon shahar




Jalaquduq tuman




Asaka tuman

HUDUDLAR KESIMIDA



Mulkchilik shakli nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari


Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm




● mlrd. so'm ● o'sish sur'ati

Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Paxtaobod tumanida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,3 % i) va Bo'ston tumanida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 99,3 % i) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat bo'lgan hkilotlartomonidanbajarilgan qurilish ishlari jamiga nisbatan ulushi



2024-yil yanvar-iyul: 295,9 mlrd. so'm




Hududlar kesimida

Ma'lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Andijon shahrida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 11,8 % i), Andijon tumani (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 10,3 % i) Ulug'nor tumanida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 7,8 % i) qayd etildi

● mlrd. so'm ● Ulushi.

Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm



Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.